

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT VILOYATI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**



5110500-Geografiya o‘qitish metodikasi ta’lim yo‘nalishi negizidagi:

**5A110501-Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi (geografiya)**

**magistratura mutaxassisliklariga kiruvchilar uchun maxsus  
(ixtisoslik) fanlaridan**

**D A S T U R**

Chirchiq-2021 y.

### **Annotatsiya**

Dastur 5A110501-Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi (geografiya) magistratura mutaxassisligiga kiruvchilar uchun 5110500-Geografiya o‘qitish metodikasi ta’lim yo‘nalishining 2018/2019 o‘quv yilida tasdiqlangan o‘quv rejasidagi asosiy fanlar asosida tuzilgan.

### **Tuzuvchilar:**

- F.T. Rajabov** - TVChDPI Geografiya kafedrası mudiri,  
g.f.f.d. (PhD).
- M.M. Maxmudov** - TVChDPI Geografiya kafedrası dots. v.b.,  
g.f.f.d. (PhD).
- Z.N. Tojiyeva** - O‘zMU Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kafedrası  
mudiri, g.f.d., professor

Dastur Tabiiy fanlar fakultetining 2021 yil 30 iyundagi 11-sonli Kengashi yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

## **Kirish**

Mazkur dastur 2018-2019 o'quv yilida 5A110501 – Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (geografiya) mutaxassisligi bo'yicha magistraturaga kiruvchilar uchun kirish sinovlari dasturi, savolnomalari va baholash mezonlarini o'z ichiga olgan. Dastur, savolnoma va mezonlari oliy ta'limning 5110500 – Geografiya o'qitish metodikasi bakalavriat ta'lim yo'nalishi Davlat ta'lim standartiga asoslanib tuzildi.

## **Asosiy qism**

### **Umumiy er bilimi**

Quyosh sistemasidagi planetalar va ularning fizik xususiyatlari. Yer sharsimonligining geografik oqibatlari. Yerning ichki tuzilishi va moddalarning tabaqalanishi. Okeanlar va materik yer po'sti. Quruqlik gipsografik va okean osti batigrafik egri chizig'i (sxema-analiz). Quruqlik yuzasi issiqlik balansi. Atmosferaning isishi. Harorat inversiyasi. Gorizonttal bosim gradienti va shamol (sxema-analiz). Atmosferaning umumiy sirkulyatsiyasi (sxema-analiz). Havoning mutloq va nisbiy namligi. Oqim va uning omillari: a) oqim qalinligi; b) oqim moduli; v) oqim koeffitsienti; g) oqim hajmi. Formulalar asosida hisoblash. Kompleks landshaft yoki tabiiy-geografik profil (kesma) tuzish metodikasi, chizmasi va kesmasi. Geografik qobiqqa yerning ichki energiyasi qaysi shakllarda kirib keladi. Hidrosferaning tarkibiy qismlari. Daryo vodiysidagi o'zan, qayir, yon bag'ir fatsial – stratigrafik kesmalar (sxema-analiz). To'rtlamchi davr yotqizilari tizimi (klassifikatsiyasi). Yu.A.Skvorsov metodi asosida G'arbiy Tyan'shan tog' tizimidagi terassalarni aniqlash. Landshaftlarning antropogen o'zgarishi.

Burchak va masofalarini o'lchash usullari. Nivelirlash turlari. Topografik kartalar. Kartografik nomenklatura. Topografik syomka turlari. Topografik plan olish. Kartalarning matematik asoslari. Kartalarni tasvirlash usullari. Kartografik generalizatsiya. Karta va atlaslar. Kartografik tasvirlash usullari. Masshtablar va ulardan foydalanish. Masofa va maydon. Mutloq va nisbiy balandlik. Topografik asboblardan foydalanish. Joy planini olish, kartalarni tuzish usullari.

Geografik joylarning nomlanishi va ularning geografiya fanining rivojlanishidagi ahamiyati. Oronim, gidronim, fitotoponim, zootoponim, antropotoponim, etnotoponim tushunchalari.

## **Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi**

Jahon mamlakatlariga siyosiy geografik tavsif. Dunyo aholisi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda aholi ko'payishi bo'yicha o'ziga xos xususiyatlari. Demografik siyosat. Jahon mamlakatlarida sanoat ishlab chiqarish. Elektroenergetika. Dunyoning qora metallurgiya sanoati tarmoqlari. Dunyoning dastgohsozlik va elektron mashinasozligi tarmoqlari geografiyasi. Dunyoning kimyo sanoati geografiyasi. Dunyoning asosiy dehqonchilik tarmoqlarini joylashishi va rivojlanishi. Dunyoning asosiy chorvachilik tarmoqlarini joylashishi va rivojlanishi. Dunyoning quruqlik transporti. Xalqaro iqtisodiy aloqalar geografiyasi. Amerika Qo'shma shtatlari xo'jaligi. Yaponiya xo'jaligi. Rivojlanayotgan mamlakatlar xalq xo'jaligining umumiy ta'rifi. Xitoy Xalq Respublikasining sanoat tarmoqlari geografiyasi. Rossiya federatsiyasi sanoat tarmoqlari geografiyasi.

Dunyo aholisining soni, yillik o'sish darajasi, uning turli tarkibiy jihatlari. Demografik portlash. Mehnat resurslari va ulardan foydalanish holati, hududiy joylashuvi. Migratsiya, uning turlari, migratsion saldo. Aholi zichligi, aholining hududiy joylashuvi. Iqtisodiy faol aholi ko'rsatkichlari, tug'ilish va o'lim. Dunyo aholisi va uning turli tarkibiy jihatlari. Urbanizatsiya va uning turlari. Shaharlarning funksional tiplari. Aglomeratsiya, megapolis tushunchalari.

## **Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi**

Materiklar va okeanlar maydonlarining taqsimlanish qonuniyatlari. Evrosiyo materigining asosiy morfostrukturalari: geotektura va morfostruktura tiplari, morfostrukturaning rayonlashtirish. Materiklarning burmali va qaytadan yoshargan tog'lari. Materiklar ko'tarilmalari va okean botiqlari shakllanishi nazariyasi. Materiklarning platforma va geosinklinal oblastlari. Materiklarni tabiiy-geografik rayonlashtirish (sxema-analiz). Materiklar tabiat zonalariga qiyosiy tavsif (sxema-analiz).

O'rta Osiyo chegaralari. O'rta Osiyo tabiatini o'rta asrlardagi o'rganish tarixi. O'rta Osiyo tabiatini Xitoy sayyohlari tomonidan o'rganilishi. Tyanshan tog' tizimining orfografik sxemasi. O'rta Osiyo tabiatining paleozoy va kaynazoy erasida rivojlanishi. Farg'ona vodiysi orografik sxemasini tuzish. Pomir tog' sistemasining orografik sxemasini tuzish. O'rta Osiyo cho'llarining genetik turlari. O'rta Osiyo tog'larida balandlik mintaqalari. O'rta Osiyo tabiat zonalarini. Muzliklardan to'yinadigan O'rta Osiyo daryolari. Subtropik mintaqa tabiat zonalarini. O'zbekiston qo'riqxonalarini. O'zbekiston rekreatsiya resurslarini. Orol dengizi – global muammo. O'zbekistonning tabiiy sharoiti va mineral resurslarini. O'zbekiston tabiiy geografik rayonlarini.

## **Transport, sanoat va qishloq xo'jaligi geografiyasi**

Asosiy sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarishning texnologik jarayonlari. Sanoat tuguni. Sanoat uzeli. Sanoat markazi. Sanoat rayoni. Sanoat tarmoqlari klassifikatsiyasi. Qishloq xo'jaligi tarmoqlari: dehqonchilik va chorvachilik. Asosiy dehqonchilik ekinlari va ularning hududiy ixtisoslashuvi. Chorvachilik tarmoqlarini hududiy tashkil etish.

O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlari tarkibi. O'zbekistonning yoqilg'i sanoati tarmoqlari geografiyasi. O'zbekistonning transport va turli tarmoqlar uchun jihozlar ishlab chiqaruvchi mashinasozligi tarmoqlari geografiyasi. O'zbekistonning yengil sanoati tarmoqlari geografiyasi. O'zbekistonning asosiy dehqonchilik tarmoqlarining joylashishi va rivojlanishi. O'zbekistonning transport geografiyasi. O'zbekistonning nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlari geografiyasi. Farg'ona iqtisodiy rayoni geografiyasi. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalari.

### **Geografiya o'qitish metodikasi**

Geografiyaning tadqiqot usullari, boshqa fanlar bilan aloqasi. Maktab geografiyasining mazmuni va uning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati. Umumiy o'rta maktablar uchun geografiyadan davlat ta'lim standarti. Geografik bilim, ko'nikmalar va malakalarni shakllantirish. Maktab geografiyasi dasturi. Geografiya darsi va uning turlari. Geografiyaning ta'lim metodlari, materialni og'zaki bayon qilish metodlari, hikoya, suhbat, ma'ruza, o'qib berish, aqliy hujum, klaster, taqqoslash metodlari. Geografiyada muammoli ta'lim. Geografik xaritalar bilan ishlash. Geografiya ta'limida ko'rgazmalilik ahamiyati. Geografiya ta'limida texnik vositalardan foydalanish. Geografik ta'limida modellardan foydalanish. Geografiya ta'limida ekskursiya. Geografiya ta'limida predmetlararo aloqalar. Maktab geografiyasining moddiy texnika bazasi (geografiya kabineti va maydoni). Geografiya o'qitish usullari, reyting tizimi. Geografiya ta'limida sinfdan tashqari ishlar (to'garak, fakultativ mashg'ulotlar).

Ilmiy-tadqiqotchilik kompetentligi, ilmiy manbaalarni tahlil qilish metodlari: ilmiy bilish metodlari; induksiya, deduksiya, analogiya; pedagogik kompetentlik, ya'ni ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llaniladigan o'qitish shakllari, metodlari hamda vositalari; ta'lim mazmuni, metodlari, vositalari va shakllarining uzviylikini ta'minlashni bilish, mashg'ulot olib boriladigan fanning maqsadi, vazifalari, predmeti va obykti, fanning ishlab chiqarishdagi o'rni va ahamiyati; fan taraqqiyotining axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga bog'liqligi; foydalaniladigan asosiy darsliklar, o'quv qo'llanmalar va elektron adabiyotlar; fan mazmunini ishlab chiqishda o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan gorizont va vertikal uzviylikning ta'minlanishini baholash; fanning istiqboldagi taraqqiy etishi muammolari va ularning yechimlari haqida bilim va layoqatga egalik.

**5110500-Geografiya o'qitish metodikasi ta'lim yo'nalishi negizidagi  
5A110501-Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (geografiya)  
magistratura mutaxassisliklariga kirivchilar uchun maxsus  
(ixtisoslik) fanlaridan kirish imtihoni yozma ishlarini  
o'tkazish tartibi va baholash mezonini**

Ixtisoslik fanlari bo'yicha magistraturaga kirish imtihoni "Yozma ishi" ko'p variantli usulda o'tkaziladi. Har bir variantda beshtadan savol aks ettiriladi.

"Yozma ish" variantlarining birinchi savoli "Umumiy yer bilimi", ikkinchi savoli "Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi", uchinchi savoli "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi", to'rtinchi savoli "Geografiya o'qitish metodikasi", beshinchi savoli esa "Transport, sanoat va qishloq xo'jaligi geografiyasi" fanlaridan bo'lib, har bir savol 20 ballik tizim asosida baholanadi.

Yozma ishni o'tkazish uchun uch (akademik) soat vaqt beriladi.

**Ixtisoslik fanlaridan magistratura kirish imtihoni yozma ishidagi har bir savoldan talabalar bilimi quyidagi mezon asosida baholanadi:**

- berilgan savolga to'g'ri va to'liq javob yozilsa, savolning mazmuni, mohiyati to'g'ri va izchil yoritilsa, shuningdek, ijodiy yondashilsa, javobda mantiqiy yaxlitlikka erishilsa o'zlashtirish ko'rsatkichi **17-20 ball** oralig'ida baholanadi;

- berilgan savolga to'g'ri javob yozilsa, savolning mazmuni to'liq yoritilgan bo'lsa, o'zlashtirish ko'rsatkichi **14-16 ball** oralig'ida baholanadi;

- berilgan savolga to'g'ri javob yozilsa, biroq berilgan savolning mazmuni to'liq yoritilmagan bo'lsa, o'zlashtirish ko'rsatkichi **11-13 ball** oralig'ida baholanadi;

- berilgan savolga javob noto'g'ri yoki yuzaki javob yozilsa, qo'yilgan masalaning mohiyati mazmuni ochib berilmasa, unda o'zlashtirish ko'rsatkichi **0 - 10 ball** oralig'ida baholanadi.

Ixtisoslik fanlaridan Davlat attestatsiyasi bo'yicha umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichi **0 dan 100 balgacha** baholanadi (86-100 ball – a'lo, 71-85 ball – yaxshi, 55-70 ball – qoniqarli, 0-54 ball – qoniqarsiz).

**ESLATMA:** Kirish imtihoni jarayonida qo'yilgan bahodan norozi bo'lgan abituriyentlar yakuniy davlat attestatsiyasi baholari e'lon qilingan kundan e'tiboran 24 soat muddat ichida appelyatsiya komissiyasiga murojaat qilishga haqli. Imtihon komissiyasi va talaba o'rtasida baholash ballari bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar maxsus appelyatsiya komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi hamda qabul komissiyasi raisi bilan kelishilgan holda xulosa qilinadi.

**Foydalanilgan asosiy adabiyotlar ro'yxati**

**Asosiy adabiyotlar:**

1. Abirqulov Q. Iqtisodiy geografiya. –T., "O'zbekiston", 2004.
2. Vaxobov X., Alimkulov N.R., Sultonova N.B. Geografiya o'qitish metodikasi. –T., "Nodirabegim", 2021.

3. Vaxobov X., M.Tillabaeva. Iqtisodiy geografiya asoslari. -T., “O‘qituvchi”, 2001.
4. Mo‘minov O. Geografiya ta’lim metodikasi. T. “O‘qituvchi”, 1986.
5. To‘xliiev N. O‘zbekiston Respublikasi ekonomikasi. Toshkent, “O‘zbekiston”, 1998.
6. O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi. Toshkent, “O‘zbekiston”, 1996.
7. Islomov O.I., Sh.Shoraxmedov. Umumiy geologiya. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1991.
8. Сконин А. Введение в экономическую географию. -М., 2003.
9. Soliev A. Muhamadaliev R. Iqtisodiy geografiya asoslari. T. O‘qituvchi. 1996.
10. Soliev A., Safarov I. Iqtisodiy va siyosiy geografiya asoslari. Toshkent, “Universitet”, 2003.

#### **Qo‘shimcha adabiyotlar:**

1. Vaxobov Ч. Umumiy er bilimi. Toshkent. “Bilim” 2005.
2. Soliev A. O‘zbekiston geografiyasi. T.: “Fan”, 2014.
3. Vahobov H. Rafikov A. O‘zbekiston tabiatini muhofaza qilish. T., “O‘qituvchi”, 2004.
4. Qozoqov A., Ma’sudov H. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasidan amaliy mashg‘ulotlar va mustaqil ishlar. -T., 1992.
5. Jumaboev T.J. Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Ma’ruzalar matni. Samarqand, 2001.
6. Мироненко Н.С. «Введение в географию мирового хозяйства» М.,1995.
7. Mirzaliev T. Kartografiya T. “Universitet”. 2002 yil.
8. Rafiqov A. va boshqalar. Geoekologiya asoslari. T.: TDPU. 2015.

